

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

XO‘JAYEV RASULBEK QADAMBOYEVICH

**MAHALLIY XOMASHYODAN DJINSI TO‘QIMASINI YANGI
ASSORTIMENTINI ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki
ishlov berish**

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatining
mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical sciences

Хо‘jayев Rasulbek Qadamboyevich

Mahalliy xomashyodan “Djinsi” to‘qimasini yangi assortimentini ishlab
chiqarish texnologiyasini takomillashtirish..... 5

Хўжаев Расулбек Қадамбоевич

Совершенствование технологии выработки нового ассортимента
“Джинсовой” ткани из местного сырья 25

Хо‘jayев Rasulbek Qadamboyevich

Improvement of the technology for producing a new assortment of “Denim”
fabric from local raw materials 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.08.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

XO‘JAYEV RASULBEK QADAMBOYEVICH

**MAHALLIY XOMASHYODAN “DJINSI” TO‘QIMASINI YANGI
ASSORTIMENTINI ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/T4924 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ttyesi.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kadirova Dilfuza Neymatovna
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Jumaniyazov Qadam Jumaniyazovich
texnika fanlari doktori, professor

Daminov Asror Mahmayusupovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.2019.T.08.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 26 dekabr soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100100, Toshkent sh., Shohjahon ko'chasi, 5.tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17; e-mail: titlp_info@edu.uz, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (258-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 12 dekabr_kuni tarqatildi
(2025-yil 12 dekabrdagi 258 -raqamli reyestr bayonnomasi).



X.X.Kamilova

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor



A.Z.Mamatov

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor



Sh.Sh.Xakimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi

Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda to'qimachilik va yengil sanoat mahsulotlarini yangi assortimentlarini yaratish, tabiiy va aralash xom ashyodan foydalangan holda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlarining sifatini taminlash va iste'molchi talabini qondirish masalalari muhim o'rin tutmoqda. 2024 yilda "...ekologik toza va barqaror materiallarga bo'lgan talab ortib, jahon matolar bozorining umumiy hajmida 10 milliard AQSh dollarini tashkil etgan»¹ va 2026-yilgacha yillik o'sish sur'ati 5% ga, ya'ni bozor hajmining 12 milliard AQSh dollariga yetishi kutilmoqda. Shu jihatdan, aralash tarkibdagi to'qimachilik mahsulotlarining iste'mol va gigienik xususiyatlarini yaxshilash, resurstejamkor texnologiyalardan foydalanish, ishlab chiqarishga tadbir etish hisobiga mahsulot tannarxini pasaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo miqyosida to'qimachilik sanoati mahsulot hajmini oshirish, assortimentni kengaytirish va sifatini yaxshilashda an'anaviy ilmiy-texnologikaviy, yechimlarni yaratishga yo'naltirilgan ilmiy tatqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu yo'nalishda, jumladan "Djinsi" to'qimalarining ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha tatqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Bu borada, to'qimalarning yangi assortimentlarini yaratish, ularning xususiyatlarini nazariy tahlil qilish, turli omillarni to'qima sifatiga ta'sir darajasini aniqlash, to'qima shakllantirish jarayonida texnologik parametrlarni muqobillashtirish, hamda to'qima ishlab chiqarish, ish rejimlarini asoslash, ko'rsatkichlarini optimallashtirish usullarini ishlab chiqishra alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikada keng turdagi sifatli to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilishini tashkil etish, uning ishlab chiqarilishini mahalliyashtirishni chuqurlashtirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan O'zbekistonning Yangi Taraqqiyot strategiyasida, jumladan, "...to'qimachilik sanoatini modernizatsiya qilish bilan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga oshirish, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish..." bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish, jumladan mahalliy xomashyodan foydalangan holda djinsi to'qimasini sifatini oshirish, yangi turlarini yaratish va assortimentini kengaytirish, iste'mol xususiyatlarini yaxshilash, yangi tuzilishlarga ega xomashyodan djinsi to'qimasini to'quv dastgohida shakllantirish jarayonlari texnologiyasini takomillashtirish va to'qish jarayolarini texnologik parametrlarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2024 yil 1 maydagi PF-71-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020 yil 5 maydagi PF-5989-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022 yil 21 yanvardagi PF-53-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmonlari hamda

ushbu sohada qabul qilingan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalar ijrosini bajarishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishning II. "Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot ishi djinsi to'qimalarining tuzilishi, tolaviy tarkibi va to'quv dastgohida shakllanish nazariyalari masalalari bilan shug'ullangan, shuningdek, to'qimachilik mahsulotlarining tuzilishi va belgilangan fizik mexanik xususiyatlari bo'yicha loyihalash ishlarini o'rganuvchi soha olimlarining ilmiy ishlariga asoslanadi. Djinsi to'qimalar nazariyalarni rivojlantirishda chet el olimlaridan Horrock A.R., Anand S.C., S. Adanur, Kothari V. K., Das A., S. Sing, L.V. Langenhove, S. JayasathyakaWin, F.T. Peirce, S.P. Kumaresh Babu, M. Ravichandran, Qian Qiua, Miaomiao Zhub, Zhaoling Lia, Kaili Qiua, Xiaoyan Liua, Jianyong Yuc, Bin Ding kabi olimlar shug'illanishgan. Ko'pylakbop va kostyumbop to'qimalarni to'quvchilik usuli bilan shakllantirishda N.G. Novikov, V.A. Gordeyev, YE.D. Yefremov S.D. Nikolayev, P.T.Bukayev, G.V. Stepanov, N.F. Surnina, G.B Damyanov, V.S. Zazdravnix, S.S.Yuxin, va boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.

Respublikamizda to'qimachilik mahsulotlarini yaratish, ishlab chiqarish masalalarini tadqiq qilishda X.A. Alimova, R.Z. Burnashev, J.N. Akbarov, Q.J.Jumaniyazov, E.SH. Alimbayev, F.A. Veliyev, A.D. Daminov, S.S. Raximxodjayev, B.X. Boymuratov, O.A. Axunbabayev, B.K. Xasanov, D.N. Kadirova, G.N. Valiyev, O.A. Ortikov, A.M. Daminov, H.Y. Rasulov va boshqa olimlarning hissalarini ham salmoqlidir.

Mazkur tadqiqotlar natijasida olimlar va mutaxassislar tomonidan Djinsi to'qimalarni ishlab chiqarishini takomillashtirish boyicha erishilgan muhim yutuqlarga qaramay, ilmiy asoslangan yo'ndashuvlarni ishlab chiqish muammosi hanuz mavjudligi, belgilangan xususiyatlar bo'yicha loyihalangan to'qimalarni ishlab chiqarish masalalari yetarlicha hal etilmaganligi bu sohada keng ko'lamlil tadqiqotlar olib borish bugungi kunda ham dolzarb ekanligidan dalolat beradi

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining № OT-Itex-2018-1 «Sportchilar uchun mo'ljallangan maxsus to'qimalarni ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini tadqiq etish» (2018) mavzusidagi loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Mahalliy tolali xomashyodan foydalangan holda djinsi matosini yangi assortimentini to'quv dastgohida shakllantirish jarayonlari texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

djinsi matolar ishlab chiqarishga mos mahalliy tolali xomashyoning tarkibi, tuzilishi va xususiyatlarini tahlil qilish;

texnologik jarayon parametrlarini to'qimaning fizik-mexanik va estetik ko'rsatkichlariga ta'sirini tadqiq qilish;

yangi assortimentaga ega djinsi matolar uchun xomashyo tayyorlash, to'qish jarayonlarining texnologiyasini va taxtlash parametrlarini ishlab chiqish;

o'ziga hos tuzilishli djinsi to'qimaning iste'mol xususiyatlarini tahlil qilish;

to'quv dastgohida o'ziga hos tuzilishga ega djinsi to'qimalarini ishlab chiqarishning muqobil parametrlarini aniqlash.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida paxta aralash eshilgan iplar, yangi tuzilishli belgilangan xususiyatli to'qimalar olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida belgilangan xususiyatli djinsi to'qima olish texnologiyasi hamda iste'mol xususiyatlari olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida hisoblash matematikasining sonli usullari, nazariy mexanika qonuniyatlari, statistik tahlil, yangi to'qimani to'quv dastgohida shakllanishi va tuzilish omillarining uning xususiyatlariga ta'siri va bog'liqligini aniqlash, tajribalarni matematik rejalashtirish va tenzometriya usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mahalliy xomashyo tuzilishi va mehanik xususiyatlarini inobatga olgan holda "Djinsi" to'qimasini to'quv dastgohida xomuza hosil qilish jarayonida tanda iplarining ochilish rejimi, arqoq zichligini jipslashtirish jarayonlarining texnologiyasi takomillashtirilgan;

yangi tuzilishli "Djinsi" to'qimaning tuzilish omillari va iste'mol xususiyatlarini tahlil qilish asosida, xomashyo tarkibi va iplarning ma'lum bikrligiga mos ravishda ip diametri, to'lqin balandligi, o'rilish, zichlik va jipslashtirish parametrlarini aniqlab beradigan loyihalash usuli ishlab chiqilgan;

mahalliy xomashyo tarkibi nisbatining egiluvchanligi va deformatsiyaga chidamlilik ko'rsatkichlariga ta'siri asosida, djinsi matolarning buralish darajasi, tuzilish barqarorligining o'zgarishini belgilovchi qonuniyatlari aniqlangan;

yangi tuzilishli "Djinsi" to'qimaning berilgan iste'mol xususiyatlari havo o'tkazuvchanligi, g'ijimlanish darajasi va bikrligini ta'minlash uchun to'quv dastgohida texnologik omillarini muqobil qiymatlari olingan ko'p faktorli regression modellarni tahlil qilish asosida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mahalliy xomashyo asosida tayyorlangan "Djinsi" to'qimalari yaratilib, import o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarilgan;

yangi texnologiya yengil sanoat korxonalarida joriy etilib, resurs tejamligi ta'minlangan;

mahalliy xomashyo bazasidan to'liq foydalanish orqali ichki bozor sifatli "Djinsi" mahsulotlari bilan ta'minlangan;

turli texnologik va geometrik parametrlarga ega "Djinsi" mato namunalari to'quv dastgohida ishlab chiqarilgan;

turli tarkibli xomashyodan foydalangan holda, yaxshilangan iste'mol xususiyatlarga ega djinsi matolarini ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy va tajribaviy tadqiqotlarning mosligi, aprotatsiya va joriy qilinishi natijalarining ijobiyliigi, shuningdek natijalarning solishtirilishi, baholash mezonlari

bo'yicha va ularning adekvatligi, tadqiqotning ijobiy natijalarini ushbu fan sohasida olingan ma'lumotlar bilan qiyosiy taqqoslanishi bilan ta'minlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati to'quvchilik korxonalarida mavjud dastgohlardan foydalanib, iste'mol xususiyatlariga javob beruvchi Djinsi to'qimaning geometrik va texnologik omillarini aniqlashning loyihalash usuli ishlab chiqilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mahalliy aralash tolali xomashyodan foydalangan holda djinsi matosini yangi assortimentini to'quv dastgohida shakllantirish jarayonlari texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha erishilgan natijalar asosida:

mahalliy xomashyodan djinsi matosini yangi assortimentini to'quv dastgohida shakllantirish jarayonlari takomillashtirilgan texnologiyasi Samarqand shahridagi "Afrosiyob Jeans" MCHJ va Qoraqolpag'iston respublikasi Ellik Qala tumanidagi "Boston Mega Tekstil" MCHJ korxonalarida joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasining 2025-yil 20-avgustdagi №02/25-2031-son ma'lumotnomasi). Natijada mahalliy xomashyodan djinsi matolarning buralish darajasi va tuzilishiga ta'sir qilish qonuniyatlari asosida loyihalanganayotgan "Djinsi" to'qimasi namunalarida buralish nuqsoni 33% ga bartaraf etishga va djinsi to'qima namunalarining iste'mol xususiyatlari V namunada havo o'tkazuvchanligi 29%, bikrligi 60% ga, g'ijimlanish darajasi 70% ga yaxshilashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobat siyasi. Tadqiqot natijalari bo'yicha jami 11 ta ilmiy-texnik konferensiyalarda, shu jumladan 5 ta xalqaro, 6 ta respublika konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, undan 3 tasi chet elda, 3 ta maqola mahalliy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Ma'lum xususiyatga ega djinsi to'qimasini ishlab chiqarish analitik tahlili va ishlab chiqarishning hozirgi holati**" deb nomlangan birinchi bobida Jahonda Djinsi to'qimalar bozorining rivojlanish tahlili va "Djinsi" to'qimalarini ishlab chiqarish uchun xomashyo bazasini tahlil qilishiga bag'ishlangan.

Jahonda "Djinsi" to'qimalarini ishlab chiqarish texnologiyalari va turalarini ishlab chiqarishning yangi usullarini yaratish bo'yicha bir qator ishlar olib borilgan.

Hozirgi vaqtda iste'molchilarning individual talablariga javob beradigan maxsus xususiyatlarga ega bo'lgan Djinsi to'qimalarni yaratish uchun yangi va innovatsion yechimlarni joriy etish, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish korxonalari samaradorligini oshirish tufayli Djinsi to'qimalarga bo'lgan talab butun dunyoda ortib bormoqda. Xususan, jahon to'qimachilik bozorida tabiiy va sintetik tolalardan Djinsi to'qimalarning keng assortimenti allaqachon mavjud bo'lib ular: shtapelli ip, uzluksiz ip va monofilament iplar yordamida turli yosh bolalar va erkak, ayollar talablariga javob beradigan xususiyatlari bo'yicha ishlab chiqarilmoqda. Shubhasiz, to'quvchilikning har bir yangi ilmiy-texnik yo'nalishi to'qima tuzilishini, uni ishlab chiqarish texnologiyasini va to'quv uskunalarini takomillashtirishni o'z ichiga oladi.

Ushbu holatlarni hisobga olgan holda, mahalliy xomashyolardan foydalanilgan holda "Djinsi" to'qimalarining yangi assortimentini yaratish, ularning to'quv dastgohida shakllahtirish jarayonlari texnologiyasini takomillashtirish va ishlab chiqish dolzarb va maqsadga muvofiqligi asoslangan.

Dissertatsiyaning "Djinsi" to'qimalarni ishlab chiqarishning o'ziga xosligi" deb nomlangan ikkinchi bobida klassik "Djinsi" to'qimalarini ishlab chiqarish texnologiyasini tahlili, to'qimalarga qo'yilgan talablar, to'qimaning tuzilishi va xususiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan texnologik parametrlari, mavjud "Djinsi" to'qimasini to'quv dastgohida shakllanish jarayonida xomashyo tarkibining taxtlash tarangligiga ta'sirini tadqiq etilgan. "Djinsi matolarida tobora ko'proq buralish nuqsoni, mato buralishining asosiy sabablari va texnologik jarayonlarning, xomashyo turining nuqsonga ta'siri bo'yicha tadqiqotlar olib borildi va qiymatlari aniqlanib asoslangan.


Dissertatsiya ishida qo'yilgan vazifaga asosan mavjud Djinsi kiyimbop to'qimalar assortimenti bo'yicha ma'lumotlar bazasi tahlil qilindi. Tahlil natijalariga asosan ustki kiyimbop to'qimalar tabiiy tolalar paxta, ipak, zig'ir va jun xom ashyo, shuningdek sun'iy tolali aralash tarkibli xom ashyodan xususan viskoza va poliyefir tolali xom ashyodan ishlab chiqarilgan.

Djinsi to'qimasini ishlab chiqarishda bir qancha texnologik jarayonlar ketma-ketligi mavjud. Quyidagi texnologik jarayonlar ketma-ketligida Djinsi matolarini ishlab chiqarishda ishlatiladigan iplarni ishlab chiqarishdan boshlab zarur bosqichlarni ochib beradi. Djinsi to'qimalarini ishlab chiqarish texnologik jarayonlar ketma-ketligini, uning qo'llanilish ko'lamiga mos ravishda tanlash lozim. Djinsi to'qimalarini ishlab chiqarish texnologik jarayonlar ketma-ketligi uch usuli 1- rasmda keltilgan.



1- rasm Texnologik jarayonlar ketma-ketligi usullari

“Djinsi” to‘qimalarda ishlatiladigan tanda iplar an’anaviy to‘qilgan boshqa to‘qimalarga nisbatan noyob tarzda tayyorlanadi. Tanda ipdan farqli o‘laroq, arqoq ipi to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘quv dastgohiga etkazib beriladi. Uning ishlab chiqarish texnologiyasi murakkab va bir necha bosqichdan iborat bo‘lib, doimiy takomillashib bormoqda. Dessertatsya ishida klassik “Djinsi” to‘qimalarini ishlab chiqarish texnologik jarayonlari ketma-ketligi keltirilgan 2- rasm.



2- rasm Klassik djinsi to‘qimalarini ishlab chiqarish texnologik jarayonlar ketma- ketligi

Ilmiy izlanishlar davomida har bir bo'limdagi mahsuldorlik jarayoni mashinaning texnik xarakteristikasi va ishlab chiqarishning har bir bosqichida unumdorlikni hisoblash uchun zarur bo'lgan asosiy omillarni inobatga olgan holda, texnologik jarayonlar ketma -ketligi tanlangan.

Ilmiy ishda Respublikamiz viloyatlari, tumanlaridagi ichki bozordagi import “Djinsi” to‘qimalari namunalari va ichki to‘qima ishlab chiqarish korxonalarini texnologiyasini tahlil qilish bilan bir qatorda usbu to‘qimalarini ishlab chiqarish omillari va iste’mol xususiyatlarini ham tadqiq etish amalga oshirildi.

Olingan natijalar tahlili, korxonalarimiz ishlab chiqarayotgan “Djinsi” matosi, bikrligi, Uzilish kuchi, Uzilishdagi uzayishi va ishqalanishga chidamliligi kabi sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha GOST talablariga javob bermaydi. Bu kamchiliklar esa to‘qimani tikish, bichish jarayonida bir qator muammolarga olib keladi. Masalan: to‘qimani bichish davrida buraluvchanligining borligi va tayyor to‘qima milking sitiluvchanligi va hokazo.

To‘qimaning buraluvchanligi - deformatsiyalanishi bo'lib, unda matoning butun uzunligining bo'ylama o'qiga nisbatan spiral shaklida siljib, buraladi 3-rasm.



3-rasm. Djinsi to‘qimadagi buralish nuqsoni ko‘rinishi

To'qimada bu nuqsonni hosil bo'lishi dastgohda to'qimaning shakllanish jarayonida mato tuzilishining notekisligi tufayli yuzaga keladi. Bunga asosiy sabablari: 1. Tanda va arqoq iplarining tarangligining noto'g'ri muvozanati; 2. Ipining eshish kattaligini haddan tashqari tanlanishi va eshish yo'nalishini turlicha olinishi; 3. Sarja o'rilishi yo'nalishini tanlanishi; 4. Nam ishlov berishda qisqarish (sanforizatsiya, yuvish) aniqlandi.


Tajribaviy Djinsi to'qimasi namunalarining buraluvchanlik foizini aniqlash maqsadida, ISO 16322-2, GOCT 3816 satandartlari metodikasi asosida tajriba sinovlari olib borildi.

Jadval -1

Tajribaviy Djinsi namunalarining buralish nuqsoni natijalari

№	Namunalar	Namuna uzunligi, mm	Siljish qiymati, mm	Buralish foizi <i>B</i>	Buralish koeffitsienti, <i>K</i>
1	Namuna I	500	30	6	0,06
2	Namuna II	500	45	9	0,09
3	Namuna III	500	45	9	0,09

Tajribaviy olingan natijalar bo'yicha, (Samarqand) Afrosiyob Jeans korxonasi I namunasining buralish foizi 6%, Jizzax "Mirzacho'l tex" MCHJ va Nukis "Boston mega tekstil" MCHJ korxonalari namunasining buralishi foizi 9% tashkil etgan.




4-rasm. Mavjud tajribaviy Djinsi namunalarining buralish foizi qonuniyati grafigi

Olingan natijalar I namuna buralish foizi 3% ga, II va III namuna djinsi mato buralish foizi 6% qiymatga ega. Bu esa to'qimani bichish davrida xatoliklarga, hamda buyumda chokning qiyshayishi natijasida iste'mol davri va xossalariga salbiy ta'sir etishi aniqlandi.

To'quv dastgohida to'qima shakllanishida, dastlab uning tuzilishida iplar orasidagi kuchlanish mavjud: tanda va arqoq iplarining tarangligi, aralash tolalarning eshishishi, notekis cho'zilish, nam-issiqlik bilan ishlov berish va boshqalar. Tanda ipining tarangligi oshganda tolalar cho'zilishi hosil bo'ladi, ya'ni elastik deformatsiya


saqlanadi. Kuchlanish bo'shatilganda, bu energiya to'liq qaytmaydi, tolalar orasidagi ishqalanish tufayli bir qismi yo'qoladi plastik deformatsiya paydo bo'ladi; iplarning yo'nalishi o'zgarib, to'qima burchagi biroz siljiydi; arqoq iplar oldingi holatidan o'zgarib mato biroz buraladi. Matoning buralishi yoki qiyshayishi - yigirish, to'qish, pardozlash va keyingi jarayonlardagi kuchlanishlar asosida yuzaga keladigan mato tuzilishidagi notekis deformatsiyalar natijasidir. Djinsi matosini dastgohda shakllanish davridagi tanda va arqoq iplarining deformatsiyasini to'qimaning tuzilishiga ta'sirini tadqiq etish va ularni salbiy sabablarini aniqlash bo'yicha izlanishlar olib borilib, olingan natijalari asosida tanda, arqoq ipi tarkibi va qaytmas deformatsiya darajasi o'rtasidagi bog'liqlik qonuniyatlari olindi 5-rasm.



5-rasm. Arqoq ipi tarkibi va qaytmas deformatsiya darajasi o'rtasidagi bog'liqlik grafigi

Arqoq ipi tarkibi va qaytmas deformatsiya darajasi o'rtasidagi bog'liqlik grafigi tahliliga asosan, I namunaning umumiy deformatsiya darajasi tanda bo'yicha 4 %, arqoq bo'yicha 3%ni, II namunada esa tanda ipining umumiy deformatsiyasi 4%, arqoq uchun 6% va III namuna uchun esa tanda 4% va arqoq iplari uchun 5%ni tashkil etgan. Xulosada I namunaning umumiy deformatsiyasi 3%, matoning buralish darajasi 6%, II namunada arqoq uchun umumiy deformatsiyasi 6%, buralish darajasi 9%, III namuna arqoq uchun umumiy deformatsiyasi 5%, buralish darajasi 9%ni tashkil etgan. Barcha namunalar ruxsat etilgan buralish foizi $\leq 3\%$ dan yuqori bo'lganligi sababli matoda buralish nuqsonini hosil qiladi. Turli tarkibli xomashyodan olingan djinsi matosida ma'lum darajada buralish nuqsoni hosil bo'lishi aniqlandi. Kimyoviy iplar tabiiy ipga nisbatan tez relaksatsiya jarayoniga kirishadi, bunda mato nossimetrik bo'shshadi.

MCHJ "AFROSIYOBJENS" "Djinsi" matosini ishlab chiqarish korxonasi xom ashyo tarkibi va tuzilish omillarining taxtlash tarangligiga ta'siri ustida tajribaviy tadqiqotlar olib borildi. Toyota Jat -810 to'quv dastgohida djinsi to'qimasini ishlab chiqarish jarayonidagi tanda iplari tarangligi tenzogrammasi ko'rinishi 6-rasmda keltirilgan.



6-rasm. Djinsi to‘qimasini ishlab chiqarishda tanda iplarining taranglik tenzogrammasi

Aralash tolali xomashyodan to‘quv dastgohida mato ishlab chiqarishda tanda iplari tarangligi o‘zgarib turadi. Asosan tanda iplari tarangligi dastgohda matoni shakllantirish jarayonlarining uch holatida o‘zgaradi. O‘rta holatda $F_{o'rt}$, xomuza hosil qilish vaqtida F_{xom} , va jiplashtirishda F_{jips} . Tanda iplarining tarangligi bu uch holatda davriy takrorlanib turadi $F_{o'rt} < F_{xom} \leq F_{jips}$. Demak, eng katta tarangligi tanda iplari uchun jiplashtirish va xomuza ochilish jarayonda sodir bo‘ladi, natijalari tahlili 2-jadvalda keltirilgan.

2 -jadval

Tanda iplarining to‘quv jarayonidagi tarangligi

No	Namunalar	O‘rta holatda, sN	Xomuza hosil qilish vaqtida, sN	Jiplashtirish vaqtida, sN
1	I-namuna	22	25	45
2	II- namuna	35	48	65
3	III-namuna	38	45	68

Dastgohni ishdan to‘xtatilishi zahoti tanda iplari tarangligining kamayishi, to‘qima qirg‘og‘i va tig‘ning to‘qnashuvini bartaraf etadi, buning hisobiga dastgohni ishga tushirishdagi jiplashtirish chiziqlari nuqsoni paydo bo‘lishi oldi olinadi. Dastgoh ishga tushirilganda, boshlang‘ich taranglik avtomatik tarzda tiklanadi va arqoq ipini to‘qima qirg‘og‘iga jiplashtirilish normal holatda ro‘y beradi.

2-Jadvalda keltirilgan natijalar bo‘yicha II va III to‘qima namunasining tanda tarangligi jiplashtirish fazasida I namunaga nisbatan 30% ga, xomuza ochiq holatida tanda iplarining tarangligi 48% ga oshgan. Bu tanda iplari doimiy ravishda yuqori taranglikda turishini anglatadi.

Shuningdek xomashyo tolaviy tarkibini arqoq ipi tarangligiga ta’siri tadqiq etildi va 3-jadvalda aks ettirildi.

Jadval-3

Arqoq ipining dinamik holatdagi tarangligi, sN

Namunalar	$F_{A.max}$	$F_{A.min}$	$F_{A.urt}$
I-namuna	25	10	17
II- namuna	38	11	24,5
III-namuna	36	13	24.5

I namunada tanda va arqoq ipining tolaviy tarkibi 100% paxta tolali va to‘qima ishlab chiqarishda tanda ipining tarangligi taxtlash tarangligi orasida oshmaganini va havo bosimi minimum miqdorda muamoga yani arqoq uzilishiga tasiri kam bo‘lganini ko‘rish mumkin. II va III namunalarda xomashyo tarkibini o‘zgarishi arqoq ipining dinamik holatdagi tarangligini 34% ga o‘zgarishiga olib keldi. Bundan tanda va arqoq ipining taxtlash tarangligini rostdashni, aynan xom ashyo tarkibi va tuzilish omillari asosida tanlashni talab etadi.

Dissertatsiya ishining **“Mahalliy xomashyodan “djinsi” to‘qimasini yangi assortimentini to‘quv dastgohida shakllantirish texnologik jarayonlarini takomillashtirish”** deb nomlangan uchunchi bobida buralishni kamaytirish uchun xomashyoni sifatiga, texnologik jarayonlarni tanlashga, texnologik parametrlarni to‘g‘ri tanlashga alohida e‘tibor qaratish lozim.

Mahalliy xomashyodan “Djinsi” to‘qimasini yangi assortimentini ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish maqsadida Samarqand viloyati Oqdaryo tumanida joylashgan "Afrasiab Jeans textile" MChJ korxonasi sharoitida bir qator tajribalar o‘tkazildi.

“Ipak va Yigirish texnologiyasi” kafedrasida laboratoriyasidagi Germaniyaning Zinser-350 rusumli halqali yigirish mashinasida 5 - variantda yangi tuzilishdagi namuna iplari olindi. Tayyorlangan namunalar “Djinsi” matolarini tayyorlashda arqoq ipi sifatida foydalanildi 4-jadval.

4-jadval

Tajribaviy ip namunalarining fizik-mexanik ko‘rsatkichlari

Namuna iplar	Chiziqli zichligi, teks	Uzilish kuchi, F (sN)			Solishtirma uzilish kuchi, (sN/teks)			Uzilishdagi uzayish, ε (%)		
		O‘rtacha	Dispersiya	Variatsiya koeffitsenti	O‘rtacha	Dispersiya	Variatsiya koeffitsenti	O‘rtacha	Dispersiya	Variatsiya koeffitsenti
I namuna 100% paxta	30	396,58	338,59	4,89	13,21	0,33	4,89	9,18	13,20	41,70
II namuna o‘zagida 100% Viskoza 100% paxta	30	441,37	5485,51	17,69	14,71	5,96	17,69	6,48	0,764	14,22
III namuna 16,6 teksli 100% Viskoza ipi 70% paxta aralash 30% Viskoza	30	464,76	1290,92	15,29	15,49	4,48	15,29	10,08	0,520	7,55
IVnamuna 16,6 teksli 100% Modal 100% paxta	30	506,08	1066,06	6,80	16,86	0,97	16,80	8,26	1,002	12,79
V-namuna 16,6 teksli 100% Modal ipi atrofidan 70% +30% Modal	30	550,1	1090,0	7,80	18,33	0,97	18,80	10,26	1,23	13,80

Barcha olingan tajribaviy ip namunalari yigirish jarayonida buramlar soni 800 bur/m qilib tayyorlandi. Tajribada olingan iplarni sinovdan o'tkazish natijalarini tahlili, IV va V-namuna ipning mexanik xossalari boshqa namunalardan yuqori ekanligi aniqlandi. Tadqiqot asosida aralash tolali iplar qo'shib olingan ipning sifat ko'rsatkichlari boshqa iplarga nisbatan Modal tolasi ipning pishiqligini, gigroskopikligi va rang yutish xususiyatlari bilan belgilangan xususiyatli djinsi to'qimasini olish imkonini beradi.

Yaxshilangan iste'mol xususiyatli Djinsi to'qimalarni to'quv dastgohida ishlab chiqarish uchun arqoq ipini havo yordamida tashlaydi, yangi tuzilishga arqoq ipini tashlashimiz uchun havo bosimi talab darajasida bo'lishi lozim. Tajribaviy "Djinsi" to'qima namunalari 5-jadvalda keltirilgan taxtlash omillari asosida JAT- 810 to'quv dastgohiga taxtlandi va ishlab chiqarildi.


5-jadval

Tajribaviy to'qima namunalarning texnologik parametrlari

№	Omillar	I namuna	II namuna	III namuna	IV namuna	V namuna
1	Xom ashyoning chiziqli zichligi: teks Tanda arqoq	30 30	30 30	30 30	30 30	30 30
3	To'qimadagi iplarning zichligi, ip/dm: Tanda Arqoq	240 200	240 200	240 200	240 200	240 200
4	Iplar soni, dona	4500	4500	4500	4500	4500
5	Xom to'qima eni, sm	187	187	187	187	187
6	O'rilish turi	Sarja 3/1				
9	100 m to'qima ishlab chiqarish uchun tanda iplarining massasi, kg	13,365	13,365	13,365	13,36594	13,365
10	100 m to'qima ishlab chiqarish uchun arqoq iplarining massasi,kg	11,4	11,4	11,4	11,4	11,4
11	To'qimalarning yuza zichligi, g / m ²	200	200	200	200	200

Olingan texnologik omillari hisobi natijalari tajribaviy to‘qima namunalari tolaviy tarkibi va ip xususiyati bo‘yicha turlicha bo‘lganligi sababli, hisoblangan texnologik omillar yangi to‘qimaning tuzilish omillari haqida ob‘ektiv baho bermaydi, chunki mavjud texnik hisobi, to‘qima tuzilishi va geometrik omillarini inobatga olmaydi.


Ishlab chiqarilgan yangi assortimentdagi djinsi matosining 5 ta namunasi kesimida mahalliy xomashyo tarkibini to‘qimaning buralish darajasi va to‘qimani dastgohda ishlab chiqarish texnologik jarayonlarida ip deformatsiyasiga ta’siri bo‘yicha tadqiqot sinovlari yuqorida o‘tkazilgan tajriba uslubi asosida (II bob) olib borilgan va qonuniyatlari aniqlangan 7-rasm.



7-rasm. Arqoq ipi tolaviy tarkibi va qaytmaz deformatsiya darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik grafigi

Tajriba sinov jarayonidan olingan natijalar (3.6-jadvalda) bo‘yicha yangi 5 ta “Djinsi” to‘qima namunalari tunda va arqoq yo‘nalishlari bo‘yicha deformatsiya ko‘rsatkichi 1-2% qiymatlarga ega.


Shuningdek yangi tuzilishdagi djinsi matolari namunalari xom ashyo tolaviy tarkibining matolarning buralish darajasiga ta’sir qilish qonuniyatlari olindi 8-rasm.



8-rasm. Yangi tarkibiy tuzilishga ega djinsi namunalari buralish foizining o‘zgarish qonuniyati grafigi

Olingan tajriba sinovi natijalari yangi tuzilishga ega xomashyodan olingan djinsi matolarning buralish darajasi 66% ga yaxshilandi.


To‘quv dastgohida yangi “Djinsi” to‘qimasini shakllanish jarayonida xomashyo tarkibining va to‘qima tuzilishining taxtlash tarangligiga ta’siri tadqiq etildi 9-rasm.



9-rasm. Havoli to'quv dastgohida tanda iplari tarangligi taqsimotining gistogrammasi

Natijalar bo'yicha ip tarangligi xomuzaga hosil qilish davrida $F_{xom}=25-28sN$, jipslashtirish vaqtidagi tarangligi $F_{jips}=45-55 sN$ ni tashkil etdi. Chiziqli zichligi $T_{ip}=30$ tekсли tanda iplarining uzilish kuchi $F_{ip}=85-93 sN$ bo'lib, homuza hosil qilish vaqtidagi tarangligidan 29% ga, jipslashtirish vaqtidagi tarangligidan esa 53% ga katta. To'quv dastgohining ishlash sikli davomidagi minimal taranglik $F_{min}=42 sN$ va uzilish kuchining 7,88% ini tashkil qiladi.

Shuningdek, arqoq ipida xomashyo tarkibining va to'qima tuzilishining taxtlash tarangligiga ta'siri tadqiq etildi.




10 -rasm Havoli to'quv dastgohida arqoq iplari tarangligi taqsimotining gistogrammasi

Yangi tuzilishli arqoq ipini homuzaga tashlash jarayonida, Arqoq ipi tarangligini $F_{A,max} = 24 - 25 sN$; $F_{A,min} = 10 sN$; $F_{A,urt} = 13 sN$ tashkil etishi aniqlandi.

Tajribaviy to'qima namunalarning fizik-mexanik ko'rsatkichlarini Toshkent shahrida joylashgan, MCHJ «O'zbek-Turk» Test Markazi sinov laboratoriyasida amalga oshirildi.


To'qimaning havo o'tkazuvchanligi uning yuzasidagi g'ovaklar soni uning hajmi va ishlov berish turiga bog'liq 11- rasm.



11-rasm. “Djinsi” to‘qimalarining havo o‘tkazuvchanlik ko‘rsatkichlari diagrammasi



Olingan gistogramma natijalariga asosan, tajribaviy namunalarning havo o‘tkazuvchanligi mavjud namunaning I- namunaning havo o‘tkazuvchanligiga nisbatan, IV va V- namunalarning havo o‘tkazuvchanligi 16% yaxshilandi. Bu IV va V- namunalarni ishlab chiqarish uhun tanda va arqoq iplarining xom ashyo tarkibi bo‘yicha farq qilgan.

Matolarning ishqalanish chidamliligi yemirilishi davrlar soni orqali GOST 18976-73 standarti orqali baholandi 12- rasm.



12-rasm. “Djinsi” to‘qimalarining ishqalanishga chidamlilik diagrammasi


Sinov jarayonidan o‘tkazilayotgan to‘qima namunalarning ishqalanishga chidamlilik ko‘rsatkichi ustki kiyimlar uchun mo‘ljallangan “Djinsi” to‘qimalarining ishqalanishga chidamlilik meyorlariga muvofiq keladi. Bunda I- bazaviy namunaga nisbatan III va V- namunalarning ishqalanishga chidamliligi 12% oshgan. GOST(GOST 21790-2005) talabiga mos keladi.



13- rasm. “Djinsi” to‘qimalarining uzilish kuchi va uzilishdagi uzayishi diagrammasi

13 -rasimga asosan 30 teksli chiziqli zichlikga ega arqoq ipining to'ldiruvchi tarkibi to'qimaning arqoq yo'nalishi bo'yicha uzilish kuchi va uzilishdagi cho'zilish miqdoriga ta'sirini ko'rish mumkin: V-namunaning tanda bo'yicha uzilish kuchi 1281,1 N, uzilishdagi cho'zilish miqdori 23,3 %, arqoq bo'yicha uzilish kuchi 973,1 N, uzilishdagi cho'zilish miqdori 38,8 % tashkil etib, barcha namunalarning tajriba natijalari GOST talabiga mos ekanligi aniqlandi.

“Djinsi” to'qimalarining bikrligi va buramdorligi yuqori ekanligini inobatga olib sinov jarayonlari o'tkazildi. “Djinsi” to'qimalarining istemol talablaridan biri bikrligi bo'yicha sinov tajribalari o'tkazildi.



14-rasm.Djinsi to'qimalarining bikirlik ko'rsatkichlarining o'zgarish histogrammasi.

